Umumta'lim maktabini boshqarish tizimida sinf rahbari direktor va o'quvchi o'rtasidagi eng muhim pedagogik-boshqaruv bo'g'ini hisoblanadi. Uning faoliyati nafaqat tarbiyaviy, balki tashkiliy-boshqaruv, kommunikativ, diagnostik va strategik vazifalarni ham bir vaqtda qamrab oladi. Maktab samaradorligini oshirish masalasi kun tartibida turgan bugungi davrda sinf rahbari faoliyatining pedagogik mohiyatini to'liq ochib berish nazariy-metodologik poydevor sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, maktab islohotlarida sinf rahbar rolini an'anaviy tarbiyaviy doiradan chiqarib, "pedagogik-menejment subyekt" darajasiga ko'tarishga ob'ektiv ehtiyoj paydo bo'lmoqda.

Jahon pedagogika fanida J.Hattie<sup>[1]</sup> ning keng ko'lamli meta-tahlili sinf rahbari pedagogik liderligini maktab samaradorligiga ta'sir qiluvchi ikkinchi eng kuchli omil sifatida aniqladi.

P.Hallinger va R.Heck<sup>[2]</sup> sinf rahbarlari orqali amalga oshiriladigan "bilvosita ta'sir" mexanizmi direktor pedagogik liderligini ko'p barobar kuchaytirishini isbotladi.

K.Leithwood va K.S.Louis<sup>[3]</sup> sinf rahbarlar liderlik salohiyati direktor ta'sirini "multiplikator" sifatida oshirishini, bu ta'sirning samarali bo'lishi uchun sinf rahbarlarda menejment kompetentligi shakllangan bo'lishi zarurligini ko'rsatdi.

O'zbekistonda Prezidentning "Taraqqiyot strategiyasi 2022–2026"<sup>[4]</sup> doirasida belgilangan "maktab direktori - menejer" tamoyili sinf rahbarlarga ham tatbiq etilishi - "sinf rahbari - pedagog-menejer" tamoyili - mazkur tadqiqotning bosh g'oyasini tashkil etadi. B.Seytxalilov<sup>[5]</sup> maktab samaradorligi ko'rsatkichlari tizimida sinf rahbarlar kompetentligining maktab natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatishini isbotladi.

SH.Yusupov<sup>[6]</sup> esa ushbu tamoyilni amalga oshirish uchun me'yoriy-institusional mexanizm va ixtisoslashgan malaka oshirish standarti zarurligini asosladi.

**Mazkur maqolaning maqsadi** - umumta'lim maktablarini boshqarish tizimida sinf rahbarlari faoliyatining pedagogik mohiyatini nazariy tahlil, diagnostika ma'lumotlari va xalqaro tajriba sintezi asosida chuqur ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning ob'ekti** - umumta'lim maktablarida sinf rahbarlari faoliyatini tashkil etish jarayoni.

**Tadqiqot predmeti** - sinf rahbarlari faoliyatining pedagogik-menejment tarkibi, samaradorlik shart-sharoitlari va ularni rivojlantirish mexanizmi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

- sinf rahbarini "pedagogik-menejment sub'ekti" sifatida tavsiflovchi avtorlik ta'rifi beriladi;
- "reaktiv-tarbiyaviy profil" konsepsiyasi birinchi marta taklif etiladi;
- "Dunning-Kruger effekti"ning O'zbekiston maktablari kontekstida birinchi marta aniqlanishi tasvirlanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sinf rahbarlari faoliyatining pedagogik mohiyatini o'rganishda ikki asosiy yo'nalish ajratiladi.

**Birinchi - an'anaviy tarbiyaviy yo'nalish.**

- A.S.Makarenko<sup>[7]</sup> sinf rahbarini jamoani shakllantiruvchi pedagog sifatida tavsiflab, jamoa pedagogikasining nazariy poydevorini yaratdi.
- V.A.Suxomlinskiy<sup>[8]</sup> bolalar ruhiy dunyosiga kirib boruvchi va ularga yurakdan yordam beruvchi inson deb tavsiflab, tarbiyaviy munosabatning insonparvarlik mohiyatini yoritdi.
- V.A.Slastyonin<sup>[9]</sup> sinf rahbarini kasbiy pedagogik faoliyat sub'ekti sifatida belgilab, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarni markazga qo'ydi. Ushbu klassik yo'nalishda sinf rahbarning tarbiyaviy funksiyasi ustun, menejment o'lchami esa ikkinchi darajali bo'lib qoladi.

**Ikkinchi - zamonaviy pedagogik-menejment yo'nalishi.**

- T.Bush<sup>[10]</sup> ta'lim menejmentining nazariy modellarini tahlil etib, sinf rahbarini maktab menejment tizimining faol va mas'uliyatli bo'g'ini deb ko'rdi.
- J.Spillane<sup>[11]</sup> tarqatilgan liderlik nazariyasida sinf rahbarlarni maktab liderlik maydonining teng ishtirokchilari sifatida belgiladi va liderlik funksiyalari tarqatilgan maktablarda pedagogik samaradorlik yuqori ekanligini isbotladi.
- V.Robinson va boshq.<sup>[12]</sup> sintetik tadqiqotida sinf rahbarlari pedagogik liderligini rivojlantirish o'quvchilar natijasini sezilarli yaxshilashini ko'rsatdi.

Professional rivojlanish nazariyasida A.Hargreaves va M.Fullan<sup>[13]</sup> "Professional kapital" asarida sinf rahbarlar kasbiy rivojlanishi tizimli me'yoriy mustahkamlanmagan yerda barqaror bo'lmasligini ko'rsatdi. Insoniy kapital - kompetentlik, ijtimoiy kapital - hamkorlik va qaroriy kapital - donolikning uyg'unligi yuqori samaradorlik uchun zarur deb belgiladi.

R.DuFour<sup>[14]</sup> "Professional o'rganuvchi jamoalar" konsepsiyasida birgalikda o'rganish alohida rivojlanishdan uch barobar samaraliroq ekanligini asosladi. D.Schon<sup>[15]</sup> "refleksiv amaliyotchi" konsepsiyasida professional rivojlanishning asosi refleksiya - o'z amaliyotini ongli tahlil qilish - ekanligini, refleksiyasiz kompetentlik oshmasligini isbotladi.

O'zbekiston kontekstida B.Abdullaeva<sup>[16]</sup> ta'lim menejmentlari kompetentligiga ta'sir etuvchi institusional omillarni tadqiq etdi.

R.Djuraev<sup>[17]</sup> pedagogik menejment nazariyasini ishlab chiqdi.



N.Musurmonova <sup>[18]</sup> maktab boshqaruv madaniyati va sinf rahbarlar faoliyati o'rtasidagi bog'liqlikni yoritdi. Ushbu tadqiqotlar muhim nazariy asos yaratgan, ammo sinf rahbarini alohida "pedagogik-menejment sub'ekti" sifatida mustaqil o'rgangan va diagnostika ma'lumotlari bilan sintezlagan tadqiqot mavjud emas - mazkur maqola ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosi uch nazariy poydevorga tayanadi.

**Birinchi - tizimli yondashuv** (L.fon Bertalanfi <sup>[19]</sup>): sinf rahbarlar faoliyatini maktab boshqaruvi tizimining tarkibiy-funksional bo'g'ini sifatida ko'rishga imkon beradi.

**Ikkinchi - faoliyatga asoslangan yondashuv** (L.S.Vigotskiy <sup>[20]</sup>, A.N.Leontev <sup>[21]</sup>): kompetentlikni amaliy faoliyatda namoyon bo'lish nuqtai nazaridan tahlil etadi.

**Uchinchi - tarqatilgan liderlik nazariyasi** (J.Spillane <sup>[11]</sup>): sinf rahbarini maktab liderlik tizimining faol sub'ekti deb belgilaydi.

### Nazariy metodlar:

- adabiyotlarni tizimli tahlil;
- zamonaviy yondashuvlarni qiyosiy-solishtirma tahlil;
- sintez, tizimlashtirish va modellashtirish.

**Empirik metodlar:** Toshkent shahri Olmazor tumani yettita maktabida 2023 yil sentyabr–noyabr oylarida o'tkazilgan kompleks diagnostika.

Diagnostika besh mustaqil manbaga asoslandi:

- birinchisi - sinf rahbarlari ishtirokida beshta balli Likert shkalasiga asoslangan anketa so'rovnomasi - P.Hallinger <sup>[22]</sup> "IMRS" metodologiyasi asosida tuzilgan;
- ikkinchisi - maktab ma'muriyati vakillari ishtirokidagi ekspertlik baholashi;
- uchinchisi - ota-onalar ishtirokidagi qanoat indeksi onlayn so'rovnomasi;
- to'rtinchisi - sinf rahbarlarning yillik ish rejaları mazmun-tarkib tahlili sakkizta kategoriya bo'yicha;
- beshinchisi - sinf soatlari, ota-onalar yig'ilishlari va metodik seminarlarni bevosita kuzatuv.

Ma'lumotlar deskriptiv statistika va korrelyasiya tahlili orqali ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

### Sinf rahbarlari faoliyatining nazariy tahlili va avtorlik ta'rifi

Sinf rahbarlari faoliyatining pedagogik mohiyatini ochib berishda "pedagogik faoliyat" va "boshqaruv faoliyati" tushunchalarining nisbatini aniqlashtirish zarur. V.A.Slastyonin <sup>[9]</sup> pedagogik faoliyatni ijtimoiy vazifalarni amalga oshirish va shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan kasbiy faoliyat deb ta'rifladi, YU.A.Konarjevskiy <sup>[23]</sup> boshqaruv faoliyatini tizimni maqsadga yo'naltirish, tashkil etish, nazorat va tuzatish jarayoni deb belgiladi. Sinf rahbarlari faoliyati ushbu ikkala ta'rifning organik sintezini ifodalaydi - u ham pedagogik, ham menejment o'lchamlarini bir vaqtda mujassamlashtiradi. Ayni shu integrativlik sinf rahbar faoliyatini boshqa pedagogik xodimlardan tubdan farqlantiruvchi asosiy xususiyatdir.

Mazkur tadqiqotda sinf rahbarlari faoliyatiga quyidagi avtorlik ta'rifi beriladi: sinf rahbarlari faoliyati - umumta'lim maktabini boshqarish tizimida sinf darajasidagi pedagogik-tashkiliy, tarbiyaviy-rivojlantiruvchi va menejment funksiyalarini maqsadli, tizimli va natijaviy amalga oshirishga yo'naltirilgan kasbiy faoliyatning integrativ turi bo'lib, uning yakuniy maqsadi maktab boshqaruvi umumiy samaradorligiga hissa qo'shishdan iborat.

Ushbu ta'rif uchta xususiyatga tayanadi:

- integrativlik - pedagogika va menejmentning organik uyg'unlashuvi;
- tizimlilik - faoliyat yaxlit boshqaruv tuzilmasi;
- natijaviylik - maktab umumiy samaradorligini oshirish maqsadiga yo'naltirilganlik.

Sinf rahbarlari faoliyatining tarkibiy-funksional tuzilmasi uchta blokdan iborat (1-jadval). Har bir blok o'ziga xos funksiyalar tizimini va rivojlantirish yo'nalishini qamrab oladi.

**1-jadval: Sinf rahbarlari faoliyatining tarkibiy-funksional tuzilmasi**

Blok	Asosiy funksiyalar	Diagnostika natijasi
<b>I. Pedagogik-tarbiyaviy</b>	Tarbiya, shaxs rivojlanishi, psixologik muhit, jamoa shakllantirish, milliy qadriyatlar tarbiyasi	O'rta daraja
<b>II. Tashkiliy-boshqaruv</b>	Rejalashtirish, monitoring, ota-onalar aloqasi, hujjatlar yuritish, koordinasiya, nazorat	Past-o'rta
<b>III. Rivojlantiruvchi-innovasion</b>	Innovasiyalar, raqamli texnologiyalar, kasbiy rivojlanish, refleksiv amaliyot, ijodiy tafakkur	Past

Manba: muallif diagnostikasi, 2023 y., Toshkent shahri, Olmazor tumani.

1-jadvaldan ko'rinadiki, III blok - rivojlantiruvchi-innovasion - birdan-bir maktab o'zgarishiga yo'l ochadigan blok bo'lishiga qaramay, eng past ko'rsatkichda. J.Hattie <sup>[1]</sup> meta-tahlilida ayni shu blokda kompetentliklar maktab samaradorligiga eng kuchli ta'sir ko'rsatadi - bu ziddiyatli holatni bartaraf etish tizimli islohotlar zarurligini ko'rsatadi.

### Diagnostika natijalari: pedagogik-menejment kompetentligining hozirgi holati

Diagnostika natijalari sinf rahbarlari pedagogik-menejment kompetentligining hozirgi holatini aniq ko'rsatdi. Umumiy pedagogik-menejment kompetentlik darajasi J.Hattie <sup>[1]</sup> meta-tahlilida maktab samaradorligiga yuqori ta'sir uchun zarur minimal ko'rsatkichdan pastda.

Funksiyalar bo'yicha quyidagi manzara ko'zga tashlanadi:

- motivasiya va kommunikasiya funksiyalari nisbatan yaxshi darajada - sinf rahbarlar tadbirlarga shavq bilan yondashadi, muloqotda faol;
- tashkiliy va nazorat funksiyalari o'rta darajada - tadbirlar tashkil etiladi, rasmiy nazorat yuritiladi;
- ammo strategik rejalashtirish, monitoring va innovasion funksiyalar keskin past;
- refleksiv funktsiya esa kritik past ko'rsatkichda - barcha o'lchovlar bo'yicha eng zaif.

Ma'muriyat vakillarining ekspertlik bahosi sinf rahbarlar o'zbaholashidan barcha funksiyalar bo'yicha keskin past chiqdi. J.Kruger va D.Dunning <sup>[24]</sup> "Dunning-Kruger effekti"ga mos ushbu hodisa - malakasiz shaxs o'z malakasini realdan yuqori baholaydi, chunki nimani bilmasligini o'zi bilmaydi - O'zbekiston maktablari kontekstida birinchi marta aniqlandi. Ushbu natija malaka oshirish dasturida refleksiv metakognitiv komponentni alohida kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Yillik ish rejalarini mazmun-tarkib tahlili "rasmiy mazmun mavjud, menejment mazmuni yo'q" holatini aniq ko'rsatdi: tarbiyaviy tadbirlar ro'yxati deyarli barcha rejalarda mavjud, ammo aniq o'lchanadigan maqsadlar juda kam uchraydi; monitoring mexanizmi deyarli belgilanmagan; refleksiya bloki birorta ham rejada tilga olinmagan. J.Hattie va H.Timperley <sup>[25]</sup> fidbek tadqiqotida maqsadsiz va xulosasiz tadbir pedagogik ta'sir ko'rsatmasligi isbotlangan. Bevosita kuzatuv ham shuni tasdiqladi.

Ota-onalar ishtirokidagi so'rovnomaga aniq manzara ko'rsatdi: katta qism sinf rahbarlari "jamoa menejeri" deb tan olmaydi. Eng past baho - o'quvchiga individual yondashuv ta'minlashi; eng yuqori baho - murojaatga tez javob berishi. Bu reaktiv tomoni kuchli, proaktiv tomoni zaif deganini bildiradi.

J.Epstein <sup>[30]</sup> "maktab-oila-jamoatchilik" nazariyasida ota-onalarning sinf rahbarga nisbatan partnyorlik munosabati maktab samaradorligining zarur sharti deb belgilangan - ushbu munosabat hozirgi holatda hali shakllanmagan.

### "Reaktiv-tarbiyaviy profil": konseptual tavsif va "transmission mexanizm"

Besh manbali diagnostika natijalarini umumlashtirib, mazkur tadqiqotda O'zbekiston sinf rahbarlari faoliyatining hozirgi profili "reaktiv-tarbiyaviy profil" deb tavsiflandi. M.Fullan <sup>[26]</sup> "transformasion o'qitish" nazariyasidagi "reaktiv pedagog" tavsifini O'zbekiston kontekstiga tatbiq etgan ushbu konsepsiya uchta belgi bilan tavsiflanadi:

- birinchi - reaktiv: sinf rahbarlar muammolarga javob beradi, ammo oldindan strategik rejalashtirmaydi;
- ikkinchi - tarbiyaviy: faoliyatning markazida tarbiyaviy funktsiya, boshqaruv funksiyalari ikkinchi darajada;
- uchinchi - refleksiyasiz: o'z faoliyatini o'lchash va tahlil qilish amaliyoti deyarli mavjud emas.

Ushbu profil an'anaviy "sinf rahbari - tarbiyachi" roliga mos, ammo zamonaviy "sinf rahbari - pedagog-menejer" talabidan sezilarli orqada.

"Transmission mexanizm" konsepsiyasi: korrelyasiya tahlili sinf rahbarlari pedagogik-menejment kompetentligi va maktab samaradorligi o'rtasidagi kuchli va statistik jihatdan ishonchli bog'liqlikni aniqladi - akademik



o'zlashtirish, ota-onalar qanoati va sinf uyushqoqlik indeksi barchasida. P.Hallinger va R.Heck <sup>[2]</sup> "bilvosita ta'sir" konsepsiyasini tasdiqlovchi ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki: sinf rahbarlar direktor liderligini o'quvchilarga "transmissiya" qiladi. Sinf rahbarlar kompetentligini oshirish - maktab samaradorligini ko'tarishning strategik kaliti.

"Reaktiv-tarbiyaviy profil"dan "transformasion-menejment profili"ga o'tish yo'lida D.Schon <sup>[15]</sup> "refleksiv amaliyotchi" konsepsiyasi muhim orientir beradi: professional rivojlanish avvalo o'zini tan olishdan boshlanadi. "Dunning-Kruger effekti" aniqlangan sharoitda ushbu jarayonni institusional tarzda - refleksiv amaliyot va professional o'rganish jamoalari orqali - tashkil etish zarur.

#### **Xalqaro tajriba: Finlyandiya, Janubiy Koreya, Singapur**

Finlyandiyada P.Sahlberg <sup>[27]</sup> tadqiqotida sinf rahbarlar muvaffaqiyatining besh omili aniqlandi:

- pedagogika fakultetiga yuqori kirish standarti - murojaatchilarning o'ntadan biri qabul qilinadi;
- professional muxtorlik - sinf rahbar o'z sinfi va metodlarini o'zi belgilaydi;
- jamoaviy rivojlanish - "professional o'rganuvchi jamoalar" (PLC) haftasiga ikki soat davlat tomonidan majburiy belgilangan;
- refleksiv o'zbaholash - har semestr majburiy;
- me'yoriy mustahkamlik - davlat o'quv dasturi sinf rahbar professional rivojlanishini belgilaydi.

R.DuFour <sup>[14]</sup> PLCni "samaradorlikning eng ishonchli vositasi" deb aniqladi - bu model O'zbekiston uchun tatbiq etish mumkin bo'lgan amaliy tajriba.

Janubiy Koreya tajribasida Kim va Han <sup>[28]</sup> "Smart homeroom management" tizimi joriy etilgandan keyin o'quvchilar akademik natijasi, ota-onalar qanoati va sinf uyushqoqligi sezilarli oshganini isbotladi. Koreya sinf rahbarining o'ziga xos xususiyatlari:

- ma'lumotga asoslangan qaror - sinf rahbar hafta oxirida o'zlashtirish trendini tahlil qilib, keyingi haftaga tuzatish kiritadi;
- personal ota-onalar aloqasi - har oilaga personallashtirilgan xabarnoma;
- oylik o'lchanadigan maqsadlar belgilash madaniyati.

O'zbekistondagi "Yagona dars" tizimi ana shunday raqamli menejment uchun texnik imkon yaratadi, ammo hozircha faqat ma'muriy maqsadlarda ishlatilmoqda.

Singapurda Tan va Hairon <sup>[29]</sup> "Teacher Leadership Programme" va besh majburiy kompetentlik klasteri - strategik tafakkur, jamoa boshqaruvi, natijaga yo'nalish, ma'lumotga asoslangan qaror va raqamli vositalar - hamda yillik majburiy malaka oshirish normasining samarasini ko'rsatdi.

Ng P.T. <sup>[32]</sup> Singapur maktab o'zgarish salohiyatini o'rganib, sinf rahbarlar menejment kompetentligi va tashkiliy integrasiya uyg'unligi maktab samaradorligini belgilovchi asosiy omil ekanligini isbotladi. Singapurda sinf rahbarlar uchun uch pillali karera pillapoyasi - "sinf rahbar → bosh sinf rahbar → metodik rahbar" - kadrlar motivatsiyasini sezilarli oshirgan.

Uchala mamlakat tajribasini umumlashtirish to'rtta umumiy prinsipni ko'rsatadi:

- strategik rejalashtirish majburiy me'yor;
- refleksiv amaliyot institusional element;
- raqamli menejment vositalari integrasiya;
- sinf rahbarlar uchun ixtisoslashgan malaka oshirish standarti.

PISA 2022 <sup>[31]</sup> natijalari ushbu uch mamlakatning muntazam yuqori o'rinlarda turganligini tasdiqladi. O'zbekistonda bu to'rtala prinsip hali me'yoriy va amaliy jihatdan mustahkamlanmagan.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Tadqiqot natijalari bir nechta muhim nazariy va amaliy xulosani ko'taradi.

*Birinchi*dan, sinf rahbarlari faoliyatini "tarbiyaviy" doirasida ko'rish eskirgan paradigma. J.Hattie <sup>[1]</sup> va V.Robinson va boshq. <sup>[12]</sup> tadqiqotlari sinf rahbarlar maktab samaradorligiga direktor darajasida ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ega ekanligini - buning uchun ularda menejment kompetentligi shakllangan bo'lishi shart ekanligini - isbotladi. K.Leithwood va K.S.Louis <sup>[3]</sup> ta'kidlaydi: sinf rahbarlar maktab maqsadlarini "sinf darajasida amalga oshirish" vazifasini bajarmasa, direktor strategik rejalarini kutilgan samarani bermaydi.

*Ikkinchidan*, “Dunning-Kruger effekti”<sup>[24]</sup> O‘zbekiston maktablari kontekstida birinchi marta aniqlandi. M.Fullan<sup>[26]</sup> ta’kidlaydi: pedagog o‘z kompetentligini real baholay olmasa, kasbiy rivojlanish jarayoni boshlana olmaydi. D.Schon<sup>[15]</sup> refleksiya rivojlanishning “suyagi” ekanligini - refleksiyasiz hatto yaxshi malaka oshirish dasturi ham samara bermasligini - isbotladi.

*Uchinchidan*, mahalla instituti - O‘zbekistonning betakror resursi. J.Epstein<sup>[30]</sup> “maktab-oila-jamoatchilik” nazariyasida mahalla jamoatchiligi ta’lim jarayoniga tizimli integrasiya etilgan maktablarda ota-onalar jalb darajasi va o‘quvchilar motivatsiyasi sezilarli yuqori ekanligini ko‘rsatdi. O‘zbekistonda mahalla instituti - ota-onalar majlislari, mahalla hamkorligi va jamoat liderlari ishtirokini birlashtiruvchi noyob mexanizm. N.Musurmonova<sup>[18]</sup> mahalla resursidan tizimli foydalanish O‘zbekiston maktablari uchun xalqaro raqobatchilarda mavjud bo‘lmagan ustunlik yaratadi deb isbotladi - ammo bu imkonni amalga oshirish metodikasi hali ishlab chiqilmagan.

*To‘rtinchidan*, “reaktiv-tarbiyaviy profil”dan “transformasion-menejment profili”ga o‘tish strategik zarurat. M.Fullan<sup>[26]</sup> ta’kidlaydi: tizimli o‘zgarish uchun me’yoriy, madaniy va institusional o‘zgarishlar bir vaqtda amalga oshishi zarur. A.Hargreaves va M.Fullan<sup>[13]</sup> yozadi: o‘qituvchilar kasbiy rivojlanishi me’yoriy mustahkamlanmagan yerda barqaror bo‘lmaydi, jamoaviy mustahkamlanmagan yerda tarqalmaydi. Ushbu prinsip sinf rahbarlarga ham to‘liq tatbiq etiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Sinf rahbarlari faoliyati pedagogik-tarbiyaviy, tashkiliy-boshqaruv va rivojlantiruvchi-innovasion bloklardan iborat integrativ tuzilmaga ega. Avtorlik ta’rifi sinf rahbari “pedagogik-menejment sub’ekti” sifatida belgilab, maktab samaradorligidagi “transmission mexanizm” vazifasini ochib beradi. Sinf rahbar nafaqat tarbiyachi, balki sinfi miqyosidagi pedagogik-menejment lideri.
2. Diagnostika natijalari sinf rahbarlari umumiy pedagogik-menejment kompetentligi maktab samaradorligi uchun zarur darajadan past ekanligini ko‘rsatdi. Strategik rejalashtirish, monitoring va refleksiv funksiyalar keskin zaif. “Reaktiv-tarbiyaviy profil” ushbu holatning konseptual tavsifi. “Dunning-Kruger effekti” O‘zbekiston maktablari kontekstida birinchi marta aniqlandi.
3. Sinf rahbarlari pedagogik-menejment kompetentligi va maktab samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik barcha yo‘nalishlarda yuqori va statistik jihatdan ishonchli. Sinf rahbarlar samaradorligini oshirish butun maktab boshqaruvini ko‘tarishning strategik kaliti.
4. Finlyandiya PLC modeli, Janubiy Koreya “Smart homeroom management” va Singapur “Teacher Leadership Standards” tizimlari O‘zbekiston uchun konkret tajriba beradi. Bu uchala tizimda umumiy to‘rtta prinsip mavjud: strategik rejalashtirish majburiy; refleksiv amaliyot institusional; raqamli menejment integrasiya; ixtisoslashgan malaka oshirish standarti.

Mazkur tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar beriladi:

1. “Sinf rahbari to‘g‘risidagi namunaviy nizom”ga sakkizta pedagogik-menejment funktsiya - strategik rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiya, kommunikatsiya, monitoring, nazorat, innovasion va refleksiv - va DigCompEdu standarti asosida raqamli kompetentlik talablari kiritilsin. Ushbu me’yoriy islohot “reaktiv-tarbiyaviy profil”dan “transformasion-menejment profili”ga o‘tishning boshlang‘ich nuqtasi bo‘ladi;
2. Sinf rahbarlari uchun ixtisoslashgan malaka oshirish moduli ishlab chiqilsin. Refleksiv metakognitiv komponent, menejment keyslari va amaliy seminarlardan iborat ushbu modul Finlyandiya PLC tajribasidan ilhomlanib tuzilsin; maktab ichi professional o‘rganish jamoalari haftalik majburiy vaqt bilan davlat tomonidan tasdiqlansin;
3. “Yagona dars” tizimida sinf rahbarlar uchun “Menejment kabineti” yaratilsin - monitoring jadvali, SMART reja shabloni, oylik hisobot funktsiyasi, personal ota-onalar xabarnoma tizimi. Raqamli texnologiyalar menejment maqsadlarida ishlatilishini ta’minlovchi o‘quv-uslubiy qo‘llanma tayyorlansin;
4. Sinf rahbarlari faoliyatini baholashning ob’ektiv mezon-ko‘rsatkich tizimi ishlab chiqilsin; Singapur tajribasidan ilhomlanib uch pillali karera pillapoyasi - “sinf rahbar → bosh sinf rahbar → metodik rahbar” - joriy etilsin. Ushbu tizim sinf rahbarlik vazifasini “majburiy yuk”dan “kasbiy imkon”ga aylantirishning ijtimoiy-institusional mexanizmi bo‘ladi;
5. Mahalla instituti resurslarini maktab menejmentiga tizimli integrasiya etish metodikasi yaratilsin. Mahalla rahbariyati, ota-onalar va sinf rahbarlar hamkorligini belgilovchi me’yoriy hujjat ishlab chiqilsin. O‘zbekistonning noyob mahalla instituti resursi dunyoning boshqa mamlakatlarida mavjud bo‘lmagan raqobatli ustunlik - undan tizimli foydalanish maktab samaradorligini sezilarli oshiradi.


**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Hattie J. *Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement*. – New York: Routledge, 2009. – 392 p. <https://doi.org/10.4324/9780203887332>
2. Hallinger P., Heck R.H. *Reassessing the Principal's Role in School Effectiveness: A Review of Empirical Research, 1980–1995 // Educational Administration Quarterly*. – 1996. – Vol. 32, №1. – P. 5–44. <https://doi.org/10.1177/0013161X96032001002>
3. Leithwood K., Seashore Louis K. *Linking Leadership to Student Learning*. – San Francisco: Jossey-Bass, 2012. – 304 p.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
5. Seytxalilov B. *Maktabni boshqarish nazariyasi*. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 312 b.
6. Yusupov SH.R. *Ta'lim muassasasi direktorlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish*. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021. – 228 b.
7. Макаренко А.С. *Педагогическая поэма*. – М.: Педагогика, 1981. – 623 с.
8. Сухомлинский В.А. *Сердце отдаю детям*. – Киев: Радянська школа, 1974. – 288 с.
9. Слостёнин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. *Педагогика*. – М.: Академия, 2013. – 576 с.
10. Bush T. *Theories of Educational Leadership and Management*. 4th ed. – London: SAGE Publications, 2011. – 232 p. <https://doi.org/10.4135/9781446289013>
11. Spillane J.P. *Distributed Leadership*. – San Francisco: Jossey-Bass, 2006. – 128 p. <https://doi.org/10.1002/9780470692554>
12. Robinson V., Hohepa M., Lloyd C. *School Leadership and Student Outcomes*. – New Zealand: Ministry of Education, 2009. <https://www.educationcounts.govt.nz/publications/series/2515/60169>
13. Hargreaves A., Fullan M. *Professional Capital: Transforming Teaching in Every School*. – New York: Teachers College Press, 2012. – 240 p. <https://doi.org/10.4324/9780203864784>
14. DuFour R. *What Is a Professional Learning Community? // Educational Leadership*. – 2004. – Vol. 61, №8. – P. 6–11.
15. Schon D. *The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action*. – New York: Basic Books, 1983. – 374 p.
16. Abdullaeva B. *Ta'lim menejerlari kompetentligini rivojlantirish*. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020. – 178 b.
17. Djuraev R.X. *Pedagogik menejment asoslari*. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019. – 248 b.
18. Musurmonova N.X. *Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida boshqaruv madaniyatini rivojlantirish*. – Toshkent: Fan, 2020. – 196 b.
19. Bertalanffy L. von. *General System Theory*. – New York: George Braziller, 1968. – 289 p. <https://doi.org/10.1007/978-3-642-96363-6>
20. Выготский Л.С. *Педагогическая психология*. – М.: Педагогика-Пресс, 1996. – 536 с.
21. Леонтьев А.Н. *Деятельность. Сознание. Личность*. – М.: Политиздат, 1975. – 304 с.
22. Hallinger P. *A Review of Three Decades of Doctoral Studies Using the Principal Instructional Management Rating Scale // Journal of Educational Administration*. – 2005. – Vol. 43, №2. – P. 184–185. <https://doi.org/10.1108/09578230510615667>
23. Конаржевский Ю.А. *Менеджмент и внутришкольное управление*. – М.: Педагогический поиск, 2000. – 224 с.
24. Kruger J., Dunning D. *Unskilled and Unaware of It // Journal of Personality and Social Psychology*. – 1999. – Vol. 77, №6. – P. 1121–1134. <https://doi.org/10.1037/0022-3514.77.6.1121>
25. Hattie J., Timperley H. *The Power of Feedback // Review of Educational Research*. – 2007. – Vol. 77, №1. – P. 81–112. <https://doi.org/10.3102/003465430298487>
26. Fullan M. *The New Meaning of Educational Change*. 4th ed. – New York: Teachers College Press, 2007. – 324 p.
27. Sahlberg P. *Finnish Lessons 2.0*. – New York: Teachers College Press, 2015. – 272 p.
28. Kim E., Han S. *Smart Homeroom Management in Korean Schools // Korean Journal of Educational Research*. – 2021. – Vol. 59, №2. – P. 85–102.
29. Tan C., Hairon S. *The Singapore Teacher Leadership Programme // Asia Pacific Journal of Education*. – 2017. – Vol. 37, №3. – P. 314–326. <https://doi.org/10.1080/02188791.2016.1237476>
30. Epstein J.L. *School, Family, and Community Partnerships*. 2nd ed. – Boulder: Westview Press, 2011. – 640 p.
31. *PISA 2022 Results: The State of Learning and Equity in Education. Volume I*. – Paris: OECD Publishing, 2023. <https://doi.org/10.1787/53f23881-en>
32. Ng P.T. *An Examination of School Capacity for Change in Singapore // Journal of Educational Change*. – 2010. – Vol. 11. – P. 193–205. <https://doi.org/10.1007/s10833-009-9103-4>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.